



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 2 (4)
2025**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 2-son 2025 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

2

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2025

UDK: 818.213

BBK: 84.61

B- 29

Butun kuch va salohiyatimizni yagona ulug‘ maqsadimiz – Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratamiz.

Yangi O‘zbekiston – bu, avvalo, yangi iqtisodiy munosabatlar, yangi iqtisodiy dunyoqarash demakdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev

Все свои силы и потенциал мы направим на достижение нашей общей великой цели - построение нового Узбекистана. Новый Узбекистан – это, прежде всего, новые экономические отношения, новое экономическое мировоззрение.

Президент Республики Узбекистан
Шавкат Мирзиёев

© Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti

© «KLASSIC PRINT» nashriyoti

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 2-son 2025 yil

Ilmiy-uslubiy jurnal 1.09.2022-yildan boshlab chiqa boshlagan, yiliga 6 marta chop etiladi.

Ta’sischi:

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

Bosh muharrir

Bosh muharrir o‘rinbosari

Mas’ul kotib

i.f.d., prof. A.Qodirov

DSc, prof. X.X.Rejapov

DSc. K.A.Muxitdinova

Jamoatchilik kengashi:

Prof. I.U.Madjidov (rais), prof. Sh.Toshmatov, PhD E.Yodgorov, i.f.n., dots. A.T.Umarov, i.f.d., prof. A.Qodirov

Tahrir hay’ati:

Prof. Sh.O.Toshmatov, prof. A.Qodirov, prof. A.V.Vaxabov, prof. X.P.Abdulqosimov, prof. F.T.Egamberdiyev, prof. Sh.G.Yo‘ldashev, prof. A.M.Sodiqov, prof. Q.Muftaydinov, prof. K.Ubaydullayev, prof. Q.K.Mambetjanov, prof. I.Y.Umarov, prof. X.X.Rejapov, i.f.d. B.Tagayev, dots. A.T.Umarov, i.f.d. B.B.Baxtiyorov, i.f.d. K.A.Muxitdinova, dots. Sh.S.Nasretdinova, dots. B.B.Mullaboyev, dots. Z.Jumaqulov, dots. N.A.Artiqov, dots. D.I.Ro‘ziyeva, dots. A.Ambartsumyan, dots. R.Abdullayeva, dots. A.Boboyev, dots. N.A.Kudratxodjayeva, dots. M.I.Saidkarimova, dots. D.M.Yakubova, dots. N. Umarova

Tahririyat manzili:

10095, Toshkent - 95, Universitet ko‘chasi, 4. tel: (+99899) 821-20-72

Журнал сайти: **<https://journal.econuu.uz>**

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi tomonidan 17.07.2022-yilda № 4715-son bilan ro‘yxatga olingan.

Buyurtma: ISBN 978-9943-5256-3-4

Jurnal OAK ro‘yxatiga 2023 yil 1 iyuldan kiritilgan (OAK rayosat qarori 04.07.2023 yil № 340/5).

Jurnalda ma’lumotlar bosilganda dalillar ko‘rsatilishi shart. Jurnalda chop etilgan ma’lumot va keltirilgan dalilarning aniqligi uchun muallif javobgardir.

“Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti” №2. 2025

MUNDARIJA

Tilabov N.T. Tadbirkorlikni rivojlantirish – budget barqarorligini ta’milash garovidir.....	7
Qo‘chqarov I.X., Abulqosimov X.P. Xufyona iqtisodiyotning rivojlanishi sabablari va uning milliy iqtisodiy xavsizlikka ta’siri.....	11
Muxitdinova K.A. «Olmalik kon-metallurgiya kombinati» AJning investitsion salohiyatini baholashning ekotizimi.....	15
Mamadjonov Sh.I. Innovatsiyalar sharoitida tijorat banklarining kapitallashuvini oshirish masalalari.....	23
Толаметова З.А. Меҳнат салоҳиятининг миқдорий компонентлари ва унга демографик дивидентни таъсири.....	27
Gulmuratov S.N. Sirdaryo viloyatida xizmatlar sohasini rivojlantirishda tibbiyot turizmining ahamiyati.....	38
Муйдинов Э.Д. МХХС га ўтиш шароитида кичик ва ўрта бизнес корхоналарида аудитни ўтказиш услубиётини такомиллаштириш масалалари.....	43
Shadieva M.D. Korxonalarning tashqi bozordagi faolligini tahlil qilishda strategik menejment yondashuvlaridan foydalanish uslubiyoti.....	51
Махсудов Б., Касимова М. Корхоналарнинг ижтимоий масъулиятли фаолияти бюджетини шакллантириш тамойиллари.....	57
Abdul Jalil Mahama The nexus of maqasid al sharia and capital structure theory in Islamic finance implementation in a Non-Islamic economic.....	64
Saidova M.J. Biznes muhitini yaxshilashda institutsional islohotlarning o‘rni (Andijon viloyati misolida).....	70
Shukurov R.E. O‘zbekistonda oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish holati tahlili	75
Амбарцумян А.А., Ульмасова Н.Р. Цифровизация как драйвер внешнеэкономической деятельности Узбекистана.....	84
G‘aybullaeva Z.R. Tijorat banklarida qimmatli qog‘ozlarning o‘rni.....	91
Sonayev S.N. Sanoat korxonalarida resurs salohiyati xususiyatlari va tamoyillari.....	96
Zufarova G.A. Kambag‘allik va tengsizlik muammolari.....	100
Хўжамуродов А.Ж. Ўзбекистон иқтисодиёти трансформацияси жараёнида шаклланган фонд бозори инфратузилмаси таърифланишининг назарий жиҳатлари.....	104
G‘ulomova V.A., Nigmatova D.Z. Global savdoni rivojlanishida jahon savdo tashkilotiga a’zolikning roli: rivojlanayotgan mamlakatlar uchun qiyinchiliklar.....	110
Mirzayev A.T. Turizm xizmatlari bozorida turistik destinatsiyalar faoliyati tahlili.....	115
Saidova D.O. Tijorat banklari faoliyati samaradorligini takomillashtirishda G. Minsbergning “5P” strategiyasini qo‘llash uslubiyoti.....	120
Istamqulov D.Q., Danyarova F.B. Milliy iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yo‘nalishlari.....	125
Ким Т.В., Абдиуалиева Г.А. Теоретические основы трудовой миграции.....	129
Захирова Г., Юсупова И. Роль государственной поддержки в сфере туризма.....	136
Бурнашева А.Д., Сабитов Р.А. Искусственный интеллект и проблемы безопасности в системе образования.....	141
Doniyev Sh.O‘. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o‘tishining tamoyillari: Kelajak istiqbollari va mavjud muammolar.....	145
Базарова Ф.Т. Организация маркетинговой деятельности в легкой промышленности: Зарубежный опыт и его применение в Узбекистане.....	149
Ochilova M.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish jarayonlari tahlili.....	153
Boyev X.I., Adilov B.B. O‘zbekistonda aholi daromadlarini oshirish orqali kambag‘allik muammosini bartaraf etish.....	157
Abduraxmonov Sh.Sh. Mamlakatimiz iqtisodiyotida bandlikka ko‘maklashishda xususiy tadbirkorlik faoliyatining hozirgi holati.....	163

ta'minlanish; jamoadagi ijobiy ruxiy muhit innovatsiya faoliyatiga yordam qiladigan omillar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF–60- son Farmoni.
2. Turdiyeva M. Osobennosti i prioritetniye napravleniya razvitiya innovatsionnix protsessov v Respublike Uzbekistan. Byulleten nauki i praktiki / Bulletin of Science and Practice <https://www.bulletennauki.com> T. 7. №12. 2022, 221-229c.
3. Muqaddas Turdiyeva. Korxona xodimlarining innovatsion faoliyatini motivatsiyalash orqali raqobatbardoshlikni ta'minlash omillari. Iqtisodiyot: Tahlillar va prognozlar. № 4 (16) Oktabr-Dekabr, 2022 yil 101-105 b.
4. Sayfutdinov M.A. Tikuvchilik korxonalari marketing strategiyasini ishlab chiqish: Iqtisod fanlari nomzodi... dis. TDIU. –T.: 2004. -170 b.
5. Xasanova G.D. "Sanoat korxonalari innovatsiya faoliyati samaradorligini oshirish". Iqtisod fanlari nomzodi... dis. TDIU. –T.: 2006. -141 b.
6. Gaipnazarova Z.T. Innovatsion investitsiyalashtirish samaradorligini oshirishning nazariy asoslari. Iqtisod fanlari nomzodi... dis. Toshkent Davlat texnika universiteti. –T.: 2012. -141 b.

UDK: 338.465

OLIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUVINI XALQARO STANDARTLARGA INTEGRATSIYALASH IMKONIYATLARI TAHLILI

АНАЛИЗ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ИНТЕГРАЦИИ УПРАВЛЕНИЯ ВЫСШИМИ УЧЕБНЫМИ ЗАВЕДЕНИЯМИ В СООТВЕТСТВИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ.

ANALYSIS OF THE POSSIBILITIES OF INTEGRATING THE MANAGEMENT OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL STANDARDS.

Odinayeva Nigina Furqatovna Buxoro davlat universiteti
Iqtisodiyot kafedrası dotsenti, i.f.f.d(PhD)

Annotatsiya

Maqolada Oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqaruvini xalqaro standartlarga integratsiyalash imkoniyatlari tahlil qilinib, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarishning xalqaro integratsiyalash jarayonlari aniqlangan. Jumladan, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'lim muassasalari, oliy ta'lim boshqaruv, xalqaro standartlar, oliy ta'lim boshqaruvni integratsiyalash.

В статье анализируются возможности интеграции управления деятельностью высших учебных заведений в соответствии с международными стандартами, а также определены процессы международной интеграции управления высшими учебными заведениями. В частности, разработаны научные предложения и практические рекомендации по совершенствованию управления деятельностью высших учебных заведений.

Ключевые слова: образование, высшее образование, высшие учебные заведения, управление высшим образованием, международные стандарты, интеграция управления высшим образованием.

The article analyzes the possibilities of integrating the management of higher education institutions in accordance with international standards and identifies the processes of international integration in higher education management. In particular, scientific proposals and practical recommendations for improving the management of higher education institutions have been developed.

Keywords: education, higher education, higher education institutions, higher education management, international standards, integration of higher education management.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi mamlakatlar milliy iqtisodiyotining global qo‘shilgan qiymat zanjiridagi ishtirokini kuchaytirish orqali ularning barqaror iqtisodiy o‘shishga erishishlarining kafolatiga aylanishiga olib keldi. Bu esa xalqaro mehnat taqsimotida mamlakatlar ishtirokini kengaytirish zaruriyatini oshiradi. Bunda mehnat resurslarining sifat ko‘rsatkichlarini takomillashtirish talab etiladi.

So‘nggi yillarda jahon oliy ta‘lim xizmatlari bozoridagi global tendensiyalar har bir oliy ta‘lim muassasasi faoliyatini boshqarish amaliyotini takomillashtirish, jumladan, ta‘lim berishda ish beruvchi manfaatlariga ustuvorlik qaratish, ilmiy sohadagi faoliyat samaradorligini ta‘minlash zaruriyatini uyg‘otmoqda. Ushbu vazifani hal etishda har qanday mamlakat oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini boshqarish jarayonlarini xalqaro standartlarga moslashtirishi talab etiladi.

Mamlakatimiz oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini boshqarish amaliyotini takomillashtirish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish, ular tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlarning miqdor va sifat ko‘rsatkichlarini oshirish maqsadida “Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” [1] ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu konsepsiyani amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- oliy ta‘lim xizmatlari bozorida sog‘lom raqobat kurashini rivojlantirish. Bunda oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmini rivojlantirish. Jumladan, nodavlat oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini tashkil etilishini rag‘batlantirish;

- xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini boshqarishning xalqaro standartlarini joriy etish;

- oliy ta‘lim muassasalari faoliyatining moliyaviy va akademik sohadagi mustaqilligini ta‘minlash orqali ular faoliyatini boshqarish jarayonida o‘z amaliyotlari uchun xos bo‘lgan rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish;

- oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini boshqarishda ilm-fan-ishlabchiqarish o‘rtasidagi integratsion munosabatlarni rivojlantirishga ustuvorlik qaratish;

- oliy ta‘lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini, shu jumladan, xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag‘larini keng jalb qilish hisobiga yaxshilash, ularni bosqichma-bosqich o‘z-o‘zini moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish va moliyaviy barqarorligini ta‘minlash;

Tadqiqotning maqsadi jahondagi oliy ta‘lim muassasalari faoliyati boshqaruvida xalqaro standartlarga integratsiyalash va ulardan mamlakatimiz amaliyotida ijobiy foydalanish imkoniyatlariga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash usullaridan foydalanilgan. O‘zbekistonlik G.N. Axunova, Sh.Sh. Zaxidova, N.R. Raxmonov, X.X. Rejapov, A.O. Ergashev, A.X. Eshboyev, N.A. Qosimova [2] kabi iqtisodchi olimlar tomonidan oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini boshqarish, ko‘rsatilayotgan oliy ta‘lim xizmatlari sifatini oshirish, oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini boshqarishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, oliy ta‘lim xizmatlari bilan mehnat bozori o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni kuchaytirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shuningdek, respublika oliy ta‘lim muassasalari innovatsion boshqaruvini rivojlantirishga bag‘ishlangan nazariy-amaliy masalalar tizimlashtirilgan va kompleks holda, maxsus tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilmagan. Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida ham mamlakatimiz oliy ta‘lim muassasalari boshqaruvi amaliyotini takomillashtirish zaruriyatini vujudga keltiruvchi quyidagi maqsadlar belgilangan:

- oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish.

- 2026-yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasini QS va THE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash;

- 2026-yilgacha nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari sonini kamida 50 taga yetkazish. [3]

So'nggi yillarda mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarish amaliyotini rivojlantirish, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash borasida keng ko'lamli islohotlar izchil amalga oshirilib kelinayotganligiga qaramay, sohada o'z yechimini kutayotgan quyidagi muammolar mavjud:

- oliy ta'lim tizimining davlat byudjeti tomonidan yetarlicha moliyalashtirilmasligi; oliy o'quv yurtlarida akademik, moliyaviy, iqtisodiy va tuzilmaviy – ma'muriy sohalaridagi avtonomiyaning kamligi;

- oliy ta'lim xizmatlari bozorida sog'lom raqobat muhitini yo'qligi; professor-o'qituvchilarning mehnatini yetarlicha moddiy rag'batlantirmaslik;

- professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyatining pastligi;

- oliy ta'lim xizmatlari bilan mehnat bozorining talablarini muvofiq emasligi;

- ta'lim sifati darajasini baholashning mukammal emasligi;

- oliy ta'lim tizimida ilmiy – tadqiqot ishlarini olib borish samaradorligini pastligi va uni ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan bog'liqligining sustligi va h.k.

Yuqorida keltirib o'tilgan muammolarni hal etmay turib, mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarish amaliyotini xalqaro standartlarga moslashtirish imkoniyatini qo'lga kiritish mumkin emas. Shu sababli, mahalliy oliy ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarish jarayonining quyidagi sohalaridagi mustaqilligini kuchaytirish talab etiladi:

- akademik, o'quv-uslubiy, qabulni tashkil etish sohasida;

- iqtisodiy va tuzilmaviy-ma'muriy sohada;

- moliyaviy mustaqillik.

Mamlakatlarda o'z milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda oliy ta'lim sohasidagi avtonomiya quyidagicha namoyon bo'ladi: akademik sohadagi avtonomiya – bu ahamiyatga molik bilimlarni to'plash va uzatish, ularni davlat idoralari tomonidan to'siqlarsiz muhokama qilish erkinligi; falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajalarini, dotsent va professor ilmiy unvonlarini berish; yo'nalish va mutaxassisliklar bo'yicha o'quv rejalarini shakllantirish, ularni mazmuni va tarkibini belgilash, majburiy kurslar va tanlov fanlar bo'yicha kurslar bilimni baholash mezonlarini shakllantirish huquqi.

Oliy o'quv yurtining moliyaviy-iqtisodiy mustaqilligi – bu oliy o'quv yurti moliyaviy byudjetini mustaqil shakllantirish; mablag'larni davlat tomonidan ajratilgan umumiy summa doirasida taqsimlash va sarflash erkinligi; nodavlat manbalardan mablag' olish va mustaqil sarflash; xodimlarga haq to'lash tizimini belgilash; moliyaviy operatsiyalarni, shu jumladan, kredit olish va berish operatsiyalarini o'tkazish; oliy o'quv yurtining moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini erishilgan natijalar bo'yicha nazorat qilish.

Oliy o'quv yurtining tuzilmaviy-ma'muriy anatomiyasi – bu oliy o'quv yurti tarkibini shakllantirish, yangi kafedralar, ilmiy, ta'limiy va boshqa bo'linmalarni, yangi yo'nalish, mutaxassislik va ixtisosliklarni ochish; xodimlarni yollash; oliy o'quv yurti tarkibi va uning boshqaruv organlarini amaldagi qonunchilik doirasida shakllantirish va sh.k.

Jahondagi aksariyat mamlakatlarda oliy o'quv yurtlarini boshqarish va nazorat qiluvchi organlar o'rtasidagi vakolatlarni markazlashtirish hamda nomarkazlashuvni rivojlantirishning turli modellari to'g'risida ilmiy munozaralar olib borilmoqda va tegishli ma'muriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda.

Jahondagi oliy o'quv yurtlari avtonomiyasi amaliyotining tahlili liberal, markazlashgan, cheklangan modellarini ajratish imkonini beradi va ular oliy o'quv yurtlariga berilgan vakolatlar hajmiga ko'ra o'zaro farqlanadi.

Liberal model (AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada) uchun oliy o'quv yurtlarining keng avtonomiyaga egaligi xosdir. Ta'lim vazirligi va boshqa davlat idoralari, oliy o'quv yurtini nazorat qiluvchi boshqaruv tuzilmalari, oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari, ularga

erishish imkonini beruvchi parametrlarni shakllantirish, umumiy moliyaviy va akademik siyosatni ishlab chiqish, yer, binolardan oliy o‘quv yurtiga tegishli boshqa mulklardan foydalanishni nazorat qilishni amalga oshirishi lozim.

Jahonda qator mamlakatlarda egallangan ma’lumot yakunlari asosida malaka sertifikatini berish (masalan, professional faoliyatning muayyan turlari bilan shug‘ullanish huquqini imtihon qilish) singari boshqaruv funksiyalari professionallarning jamoat uyushmalariga o‘tkaziladi. Ta’lim dasturlarini akkreditatsiya qilish va yakunlovchi imtihon o‘tkazishga taalluqli funksiyalar universitetlar assotsiatsiyasiga o‘tkazilishi mumkin.

Markazlashgan model. Ushbu model doirasida (Fransiya, Germaniya, Rossiya) oliy o‘quv yurtlari o‘quv, ilmiy-tadqiqot, ma’muriy va moliyaviy faoliyatda huquqiy nuqtayi nazardan avtonom hisoblanishadi. Shu bilan birga, universitetning davlat bilan munosabatlari qonun hujjatlari, davlat boshqaruvi organlarining buyruqlari, yo‘riqnomalari bilan tartibga solinadi. Oliy o‘quv yurtlarining tarkibiy tuzilmasi, funksiyalari, o‘quv rejaları, o‘quv dasturlari, universitetning avtonomiyasi e’lon qilinganiga qaramay, aksariyat oliy o‘quv yurtlari faoliyatining operativ masalalarini hal qiluvchi ta’lim tizimini boshqarish davlat organlari yo‘riqnomalari bilan belgilanadi.

Oliy o‘quv yurtlari avtonomiyasi ma’lum sohalarida juda cheklangan tarzda (akademik faoliyat, moliya), tashkiliy tuzilma, boshqaruv shakl va metodlari masalalarini hal etishda amalga oshadi.

Cheklangan avtonomiya modeli. Oliy o‘quv yurtlari avtonomiyasining cheklanishi davlat hokimiyati organlari tomonidan quyidagicha joriy etiladi:

- oliy maktab bilan bog‘liq innovatsiyalarni rivojlanish jarayonini nazorat qilishga intilishi;
- oliy ta’lim mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim o‘rin tutganligi uchun oliy ta’lim ishida faol ishtirok etishi;
- ishlab chiqarishni rivojlantirishning muhim omili bo‘lgan malakali mehnatning raqobatbardoshligini oshirish, ushbu tizimda sodir bo‘layotgan jarayonlarni tartibga solishi bilan bog‘liq.

1-jadval

Oliy o‘quv yurtlarining rivojlanish avtonomiyasi modellarida ular faoliyatini boshqarish xususiyatlari

Avtonomiya modeli	Davlat tomonidan tartibga solish darajasi	Jamoat uyushmalari, vositachilik tashkilotlarining o‘rni	Jamoatchilik nazoratining shakli va mexanizmi	Oliy o‘quv yurtlariga berilgan vakolatlari
Liberal	Oliy o‘quv yurtlarining rivojlanishini strategik maqsadli ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishga aralashmaslik	Qator boshqaruv funksiyalari va vakolatlariga ega bo‘lgan holda amalga oshiriladi.	Oliy o‘quv yurtlarining hisobot berishi va uning shaffofligini ta’minlovchi shakllar	Akademik, moliyaviy-iqtisodiy va tuzilmaviy-ma’muriy sohalarida vakolatlar berish
Markazlashgan	Oliy o‘quv yurtlari akademik, moliyaviy faoliyatining ma’lum jihatlarini tartibga solish	Ayrim boshqaruv funksiyalari, jumladan, ta’lim sifatini yaxshilash amalga oshiriladi.	Jamoatchilik nazorati rivojlanmagan	Berilgan vakolatlar oliy o‘quv yurtlari avtonomiyasi sohalarida notekis amalga oshiriladi; akademik va moliyaviy mustaqillik cheklangan
Cheklangan	Oliy o‘quv yurtining muhim boshqaruv funksiyalarini, faoliyatini boshqarish	Oliy maktabni boshqarish tizimiga chetdan jalb etilgan tashkilotlar uchun boshqaruv vakolatlari berilmagan	Jamoatchilik nazorati yo‘q	Oliy o‘quv yurtlari avtonomiyasining, jumladan, akademik sohadagi cheklangan vakolatlari mavjud

Oliy o‘quv yurtlari avtonomiyasi muammosi Oliy o‘quv yurti bilan davlatning o‘zaro munosabatlari tizimida oliy o‘quv yurtlarining vakolatlari, oliy ta’limni boshqarishni tashkil qilish tizimiga, unga kiritilgan barcha institutlarni va oliy o‘quv yurti ichki boshqaruvi bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab muammolar mavjud.

Oliy o‘quv yurtini boshqarish nazariyasi va amaliyotidagi muammolarning tahlili quyidagilardan iborat:

1. Oliy ta’limni umumdavlat, mintaqaviy darajada tartibga solish, uni ixtisoslashtirilgan tashkilotlar – vositachilar, jamoat tashkilotlari orqali boshqarish bilan oliy o‘quv yurtlari mustaqilligi o‘rtasida oqilona muvozanatini shakllantirish va unga erishish. Oliy maktabda samarali boshqaruv tizimiga oliy o‘quv yurtlarining mustaqilligisiz, oliy maktab muammolarini hal etishga mintaqaviy hokimiyatlarni, qator boshqaruv funksiyalariga kasbiy va ularga xizmat ko‘rsatuvchi ixtisoslashgan tashkilotlarni, jamoat tashkilotlarini jalb etmasdan erishish mumkin emas. Ushbu ko‘p subyekтли boshqaruv konstruksiyasi doirasida oliy ta’lim tizimidagi subyektlar vakolatlarini taqsimlash qarorlari har bir mamlakatning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy holatini, milliy madaniy-tarixiy an‘analarini e’tiborga olgan holda qabul qilinishi lozim.

2. Oliy o‘quv yurtlarining mavjud avtonomiyasiga mos tashkiliy-huquqiy shakllariga faoliyatning shaffofligi va hisobot berish majburiyatlari bilan birgalikda “javobgarlikka tortilish” huquqi bilan mustaqil korporativ yuridik birlik maqomini bergan holda oliy o‘quv yurtlari faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish ular avtonomiyasini rivojlantirishning muhim shartidir. Ushbu maqomni olishning turli usullari mavjud.

3. Oliy o‘quv yurtlari avtonomiyasi an‘analarini saqlash va uni amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish.

4. Oliy o‘quv yurtlarining davlatga, jamiyatga hisobotdorligi shakllarini izlash va ulardan foydalanish, oliy o‘quv yurtlari faoliyatining, moliyaviy sohadagi shaffofligini ta’minlash oliy o‘quv yurtlarining avtonomiyasini rivojlantirish imkonini beradi.

Oliy o‘quv yurtlari avtonomiyasining markazlashgan modeli ularga qator muhim vakolatlarni berish bilan davlat hokimiyati organlarining oliy ta’limni boshqarishdagi faol ishtirokini ta’minlashga imkoniyat yaratadi. Markazlashgan modelni rivojlantirish quyidagi masalalarning hal etilishi bilan bevosita bog‘liq:

1. Yetakchi oliy o‘quv yurtlariga ta’lim standartlarini o‘zgartirish vakolatini berish va ushbu funksiyani ta’limni boshqarish davlat organlarida saqlab qolish orqali akademik avtonomiyani rivojlantirish.

2. Byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘larni sarflash tartibini soddalashtirish, hisobotlarni maqbullashtirish, nazorat qiluvchi tashkilotlar va tekshiruvlar sonini qisqartirish asosida takomillashtirish.

3. Oliy o‘quv yurtlarida hal etiladigan muammolarni huquqiy jihatdan hal etish uchun oliy o‘quv yurtini boshqarishning me’yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish lozim.

Oliy o‘quv yurtlari avtonomiyasining markazlashgan modelini amalga oshirilishi quyidagi oqibatlariga olib keladi:

1. Bozor munosabatlari shakllanishi sharoitida oliy ta’limda oliy maktabning davlat tomonidan boshqarilishi bilan o‘z-o‘zini boshqarish o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash.

2. Oliy maktabni boshqarish tizimini rivojlantirishdagi bosqichma-bosqichlik va vorisiylikni ta’minlovchi mavjud boshqaruv amaliyotini takomillashtirish, maqbullashtirish.

3. Oliy maktab avtonomiyasini rivojlantirishdagi ayrim salbiy tendensiyalarni konservatsiya qilish ehtimolining mavjudligi, jumladan:

- kollegial organlar – oliy o‘quv yurtlarining ilmiy kengashlari, vasiylik va boshqaruv kengashlarining oliy o‘quv yurtlarini boshqarishdagi mavqeyining pastligi;

- davlat talablari asosida oliy o‘quv yurtlari hamjamiyatini shakllantirish;

- boshqaruv tizimi samaradorligini baholashning aniq mezonlarini yo‘qligi;

- vakolatlar bilan javobgarlikdagi nomutanosiblik;

- iqtisodiyotning real sektori talablariga oliy o‘quv yurtlari rahbarlarining boshqaruv bilimlarining mos kelmasligi, ya’ni yyetarli emasligi.

Oliy o‘quv yurtida cheklangan avtonomiya modelini amalga oshirish quyidagi oqibatlarga olib keladi:

1. Oliy maktabda davlat siyosatini va tegishli tadbirlarni amalga oshirish asosida samaradorlikni oshirish.

2. Oliy maktabni davlat tasarrufiga o‘tkazish, oliy o‘quv yurtining davlat tashkiloti sifatidagi maqomini mustahkamlash, uning muammolarini davlat apparatini fikrlash uslubidan hal etishda oliy maktab faoliyatini byurokratlashuvi;

3. Bir qator vakolatlardan mahrum bo‘lish oliy o‘quv yurtida, rektorlar korpusida yosh bilan bog‘liq muammolarni kelib chiqishi.

Jahon amaliyoti ko‘rsatishicha, xalqaro andozalarga javob beradigan universitetlar xalqaro miqyosidagi nufuzli oliy ta‘lim muassasalari bilan qiyosiy taqqoslanishi kerak. Shuning uchun xalqaro andozalarga javob beradigan universitetlarni tashkil etishni ko‘zlagan mamlakatlar ta‘lim va tarbiya sohasida jamiyatning malakali kadrlarga bo‘lgan talablarini qondirishi lozim.

Xalqaro andozalarga javob beradigan universitetlarni yaratish uchun qilinayotgan xatti-harakatlar jarayoni xalqaro andozalarga javob beradigan universitetlarning boshqa mamlakatlardagi tajribasini takrorlashdan, milliy oliy ta‘lim tizimidagi resurslarni tasimlashdagi muvozanatning buzilishini oldini olish uchun lozim. Global bilimga asoslangan iqtisodiyotda dunyo universitetlarini yaratishga bo‘lgan qiziqish aksariyat mamlakatlarning real ehtiyojlari va imkoniyatlaridan ancha ustun hisoblanadi. Mamlakat xalqaro andozalarga javob beradigan universitetlarga, oliy ta‘lim tizimi tayyorlaydigan malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlari qondirilgunga qadar muhtoj bo‘ladi. Jahon miqyosidagi nufuzli universitetlarni shakllantirish katta moliyaviy xarajatlar, yuqori malakali kadrlar va menejmentni jamlashni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini taqsiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son farmoni, 08.10.2019 y. <https://lex.uz/docs/4545884>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son farmoni, 28.01.2022 y. <https://lex.uz/docs/5841063>
3. Axunova G.N. Ta‘lim xizmatlari bozorida marketing faoliyati va uni takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoreferati – T., 2004. – B. 45.
4. Zaxidova Sh.Sh. Oliy ta‘lim xizmatlari bozorining amal qilish mexanizmi samaradorligini oshirish (O‘zbekiston materiallari misolida). i.f.n. ... diss. avtoreferati. – Toshkent, 2012. – 23 b.
5. Raxmonov N.R. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish asosida oliy ta‘lim tizimida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish. i.f.d. (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati – Toshkent – 2019. 42 b.
6. Rejapov X.X. Oliy ta‘lim xizmatlari va mehnat bozori o‘rtasidagi munosabatlarni takomillashtirish. i.f.f.d. (PhD) ... diss. Avtoreferati. – Toshkent – 2020. 26 b.
7. Ergashev A.O. Ta‘lim tizimining iqtisodiy boshkaruv asoslarini takomillashtirish. (O‘zbekiston Respublikasi o‘rta – maxsus, kasb-xunar tizimi misolida): - i.f.n...dis. Avtoreferati. – Toshkent: TDTU, 2006. – 24 b.
8. Odinayeva N.F. Development trends of the market of higher education services in Uzbekistan and directions for improving the management practices of higher education institutions // Journal of Management Value & Ethics, SJIF 8.001 & GIF 0.626; pages 213-222, march 2023, India.
9. Odinayeva N.F. Trends in the Development of the Efficiency of Management of Higher Education Institutions in Uzbekistan // International Journal on Orange Technology, e-ISSN: 2615-8140 | p-ISSN: 2615-7071, Volume: 5 Issue: 6 | June 2023, pages 131-136.
10. Odinayeva N.F. Oliy ta‘lim muassasalari boshqaruvini xalqaro standartlarga integratsiyalash zaruriyati // “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash: muammolar va yechimlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya, 254-259 bet, 2023y.